

QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA  
PHILOLOGY

UDK: 811.1

ORCID: 0009-0008-5105-6043

## DIALEKTAL FRAZEOLOGIZMLARNING SHAKLLANISH ASOSLARI

**ISLOMOVA SHOIRA**

*Xalqaro innovatsion universiteti  
O‘zbek filologiyasi va jurnalistika  
kafedrası o‘qituvchisi  
[shoiraislomova67@gmail.com](mailto:shoiraislomova67@gmail.com)  
[tel.99895 220 16 88](tel:998952201688)*

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot ishida frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish tarixi, dialektal frazemalar yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari va bu ishlarda dialektal iboralarning qaysi jihatlari o‘rganilganligi haqida fikr yuritiladi. Adabiy til lug‘at tarkibining boyishi va taraqqiyoti xalq shevalari bilan uzviy bog‘liqligi xususida, ularning tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan dialektal frazeologizmlarni o‘rganish alohida yondashuv, tadqiqotlarni talab qilishi, ularning shakllanish tarixi, etimologik kelib chiqishi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, maqolada sheva vakillarining asosiy mashg‘ulotlari hamda turmushda ko‘p murojat qiladigan tushunchalarning iboralar tarkibiga singdirilishi yuzasidan fikr bildiriladi.

**Kalit so‘zlar:** dialekt, frazeologik birlik, sheva, leksikografik birlik, etimologiya, lug‘at, Qashqadaryo qipchoq shevasi.

## ОСНОВЫ ОБРАЗОВАНИЯ ДИАЛЕКТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ

**Аннотация:** В данной научной работе рассматриваются специфические особенности фразеологических единиц, история их изучения в мировом и узбекском языкознании, исследования, проведенные по диалектной фразеологии, а также какие аспекты диалектных выражений изучались в этих исследованиях. В статье рассматривается тот факт, что обогащение и развитие словарного состава литературного языка неразрывно связано с народными диалектами, то, что изучение диалектных фразеологизмов, которые считаются одним из их компонентов, требует особого подхода и исследования, рассматривается история их образования и этимологического происхождения. В статье также рассматриваются основные виды деятельности представителей диалекта и включение в структуру фразеологизмов понятий, часто используемых в повседневной жизни.

**Ключевые слова:** диалект, фразеологическая единица, говор, лексикографическая единица, этимология, словарь, Кашкадарьинский кыпчакский диалект.

### **BASIS OF FORMATION OF DIALECTICAL PHRASEOLOGISMS**

**Abstract:** This research paper discusses the specific characteristics of phraseological units, the history of their study in world and Uzbek linguistics, research conducted on dialectal phraseology, and what aspects of dialectal expressions were studied in these works. The study of dialectal phraseology, which is one of their components, requires a special approach and research, the history of their formation, and etymological origin. The article also discusses the main activities of dialect representatives and the incorporation of concepts that are often used in everyday life into the structure of expressions.

**Keywords:** dialect, phraseological unit, dialect, lexicographical unit, etymology, dictionary, Kashkadarya Kipchak dialect.

**KIRISH.** Tilshunoslikda frazeologik birliklar tadqiqi yuzasidan ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Biroq dialektal frazemalar yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlarini yetarlicha deb bo‘lmaydi. O‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasiga oid dastlabki ilmiy izlanishlar XX asrning 50-yillaridan boshlanib, bugunga qadar ko‘plab ilmiy-amaliy ahamiyatli tadqiqotlar amalga oshirildi va davom etib kelmoqda. Adabiy til lug‘at tarkibining boyishi va taraqqiyoti xalq shevalari bilan uzviy bog‘liq ekan, ularning tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan dialektal frazeologizmlarni o‘rganish alohida yondashuv, tadqiqotlarni taqozo qilib turadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Tilshunoslikda frazeologik birliklar tadqiqi XVIII asrdan boshlab amalga oshirib kelinayotganligi manbalardan ma’lum. Xususan, xorijiy olimlardan Sh.Balli, V.fon Gumbold, V.V.Vinogradov, A.A.Potebnya, A.V.Kunin, L.I.Royzenzon, G.I.Kramorenko, Z.G.Uraksin, V.N.Teliya, A.Baranov, V.P.Jukov, N.M.Shanskiy ilmiy izlanishlarida ushbu masalaga muayyan darajada munosabat aks etgan.<sup>225</sup>

O‘zbek tilshunosligida dialektal frazeologizmlar yuzasidan o‘rganish ishlari o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlangan. Bu borada X.Doniyorov, T.Sodiqov, H.Uzoqov, Sh.Shomaqsudov, S.Dolimov, B.Fayzullayev kabi olimlarning xizmatlari beqiyosdir. Ayniqsa,

---

<sup>225</sup>Балли Ш. Французская стилистика: – М.: изд-во иностранной лит-ры, 1961. – 394 с.; Гумбольдт фон В. Язык и философия культуры. – М., 1985; Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. –М.: Прогресс, 1984; Виноградов В.В. Избранные труды. В 7 кн. – М.: Наука, 1975-2003 Виноградов В.С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). Учебное пособие / В.С. Виноградов. – М.: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001. – 224 с.; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Уч. пособие, 2 издание. – М.: Высшая школа, 1996; Ройзензон Л.И. Лекции по общей и русской фразеологии. – Самарканд, 1971; Краморенко Г.И. Фразеологические варианты в идиоматике современного немецкого языка. – Смоленск, 1961; Ураксин З.Г. Фразеология башкирского языка. – М.: Наука, 1975; Телия В.Н. Русская фразеология: семантико-прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: ЯПК, 1996; Жуков В.П. Значение фразеологизма и значение слова // Русский язык в школе. 1974. № 3. – С. 81-86; Жуков В.П. Русская фразеология. – М.: Высшая школа, 1986. – 310 с.; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – М.: Высшая школа, 1985. – 52 с.

qipchoq shevalari tadqiqotchisi tilshunos X.Doniyorov dialektal frazeologizmlar ustida ham jiddiy, monografik tadqiqotlarni amalga oshirib, mavzu doirasidagi masalalarning ilmiy talqiniga katta hissa qo‘shdi. Toshkent shevasi frazeologiyasi yuzasidan tadqiqot ishi olib borgan T.Sodiqov 1968-yilda “Toshkent oblasti shevalari leksikasi” nomli nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Ushbu dissertatsiyaning uchinchi bobi sheva frazeologiyasiga bag‘ishlangan edi. Farg‘ona guruh shevalari frazeologiyasi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan H.Uzoqov “Dialektal frazeologizmlar haqida” nomli maqolasida dialektal iboralarning adabiy til doirasidagi o‘rni va ahamiyati xususida to‘xtalib, adabiy tilda mavjud bo‘lmagan hamda adabiy tildan leksik farq qiluvchi faqat shevaga xos frazeologizmlar tahlilini amalga oshiradi.

M.Hamidovning Janubiy Surxondaryo shevalaridagi barqaror birikmalar yuzasidan amalga oshirgan tadqiqot ishida dialektal frazeologizmlar masalasiga ham e‘tibor qaratib o‘tiladi. Ishda sheva frazeologizmlarining funksional-semantik, leksikografik xususiyatlari tahliliga ham o‘rin ajratilgan. Sh.Shomaqsudov va S.Dolimovlar “Qayroqi so‘zlar”<sup>226</sup> asarida turli tabaqa va kasb vakillari nutqida qo‘llaniladigan uch mingga yaqin iborani alifbo tartibida joylashtiradi, ularning qisman etimologiyasini ham keltiradi.

Mazkur tadqiqotda komponent tahlil, qiyosiy va leksikografik tahlil metodlaridan foydalanildi. Dialektal ibora qiyosiy o‘rganilib, tarkibidagi har bir komponent alohida tahlilga tortilib izohlandi. Tadqiqot jarayonida dialektal lug‘atlardan foydalanildi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Dialektal frazeologizmlar uzoq vaqtlardan buyon tarkibida qadimiy so‘z shakllari va chuqur ma’no-mazmunni saqlagan holda avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Jumladan, Qashqadaryo qipchoq shevalarida *o‘lim haq, jon tanani tark etishi tez* ma’nolarini o‘zida mujassam etuvchi *jon jog‘aga jovuq* iborasi adabiy tilda mavjud emas. Ibora tarkibida qadimgi tillardan qipchoq tillari guruhiga xos bo‘lgan leksik xususiyat *juvoq* so‘zining qo‘llanilishini uchramiz. Qadimiy so‘z hisoblangan leksema qipchoq tili haqida qimmatli ma’lumotlar beruvchi “Attuhfatuz zakiyati fillug‘atit turkiya”<sup>227</sup> lug‘atida “yaqin” ma’nosida izohlanadi. Ushbu leksema hozirgi o‘zbek adabiy tilida qayd qilinmasa-da, qipchoq shevalarida faoldir. *Jog‘a* so‘zi esa adabiy tildagi *yoqa* so‘zining shevadagi varianti, ko‘rinishidir. Qadimgi til unsurlarini o‘zida saqlagan iboralardan yana biri *shishak so‘yding, pishak so‘yding* iborasidir. Ibora tarkibidagi *shishak* leksemasi ushbu lug‘atda ikki yashar echki<sup>228</sup> ma’nosida izohlanadi. Yoshidan endi oshgan jonliq bo‘yi o‘sishi natijasida semirmaydi. Qipchoq chorvadorlari esa bu yoshdagi jonliqni go’sht uchun so‘yish foydasiz ekanligining ta’sirchan, xalqona usuli sifatida ushbu iborani yaratgan. Ya’ni *shishak* misoli *pishak, pishak* esa *mushuk* so‘zining shevadagi varianti. “Garchi bunday elementlar qanchalik arxaik bo‘lmasin o‘zbek tili tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga molikdir.”<sup>229</sup> Shuningdek, qadimgi qipchoq

<sup>226</sup> Шомақсудов Ш., Долимов С. Қайроқи сўзлар. – Тошкент, 2011.

<sup>227</sup> Ат-тухфатуз закияти фил-луғатит туркия. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 204.

<sup>228</sup> Ko‘rsatilgan manba: – B. 277.

<sup>229</sup> Содиков Т. Тошкент область ўзбек шевалари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1968. – Б. 106.

tillari leksikasini o‘zida jamlagan ushbu lug‘atda<sup>230</sup> keltirilgan *qiz bo‘ldi* (*qimmatlashmoq, narx-navoning o‘shishi*), *qutlug‘ to‘biqli* (*barakali, poy-qadamli*) iboralari adabiy tilda va boshqa dialektal shevalarda mavjud emas, ammo Qashqadaryo qipchoqlari nutqida yashab kelayotgan faol birlikdir. Yoki qadimiy bo‘lishiga qaramasdan og‘izdan-og‘izga ko‘chib kelayotgan iboralardan yana biri *yemiga tushmoq* iborasidir. Ushbu ibora “shifo topmoq, tuzalmoq” ma’nolarida qo‘llaniladi. Ibora tarkibidagi *yem* so‘zi “Devonu lug‘ati-t turk”<sup>231</sup> asarida dori ma’nosida izohlangan. Bundan ko‘rinadiki, shevalarda juda qadimiy, sof turkiy so‘zlarni o‘zida saqlab, ularni avloddan avlodga yetkazib, yashab kelayotgan iboralar talaygina. Darhaqiqat, “Xalqning bu iboralari turmush voqealarini, kishining xarakterini to‘g‘ri va haqqoniy aks ettirgani uchun, uzoq vaqt yashaydi va ishlatiladi.”<sup>232</sup>

“Dialektning har bir shevasida o‘z turmush sharoiti, xo‘jaligi va urf-odatidan kelib chiqqan o‘ziga xos frazeologik iboralar borki, ular o‘sha sheva yoki bir necha (shu tipdagi) shevalarda uchrasa, boshqasida yo‘q yoxud boshqacha formada uchraydi. Bulardan ba’zilari adabiy tilda o‘z ma’no xususiyatini saqlagan holda (fonetik o‘zgarishlar bilan) uchrasa, boshqalarini adabiy tilga o‘zlashmaganini ko‘ramiz.”<sup>233</sup> Haqiqatan ham, har bir shevaning o‘ziga xos fonetik, leksik, grammatik jihatdan o‘ziga xosliklari mavjud, shevalarga xos har bir hodisaning o‘z o‘rni, ma’no va vazifasi borki, ularni ilmiy jihatdan tekshirish, tilimiz, madaniyatimiz tarkibida tutgan o‘rni va ahamiyatiga baho berish, ularning zamonaviy shakl va formatdagi lug‘atlarini yaratish shevashunosligimizning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

“O‘zbek frazeologiyasi uchun dolzarb muammolardan yana biri frazemalarning kelib chiqishi, etimologiyasini o‘rganishdir.”<sup>234</sup> Ushbu sohada bir qator olimlarning asarlarida, ilmiy maqolalarida iboralar etimologiyasi xususida so‘z yuritiladi.<sup>235</sup> Xususan, “Etimologiya so‘zi yunoncha etymon va logos so‘zlaridan tarkib topgan; etymon so‘zi “chin, asl mohiyat” ma’nosini, logos so‘zi esa “ta’lim” ma’nosini anglatadi: shunga ko‘ra, etimologiya sohasida so‘zlarning asl shakli va ma’nosini aniqlash bo‘yicha izlanishlar olib boriladi.”<sup>236</sup> “Iboralar dastlabki yaratilgan vaqtda majoziy ma’noga ega bo‘lmagan u keyinchalik borib majoziy ma’noni, ko‘chma ma’noni kasb etgan.”<sup>237</sup> Xususan, *tulubini chilqillatmaydi* iborasi mazmuni shakllanish asosi muayyan mehnat jarayoni bilan bog‘liq hisoblanadi. *Qatiq tarkibidagi zardob*

<sup>230</sup> Ko‘rsatilgan manba: – B. 232.

<sup>231</sup> Кошғарий М. Девону луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони). / Ғ.Абдурахмонов ва С.Муталлибов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 43.

<sup>232</sup> Шомаксудов Ш., Долимов С. Қайроқи сўзлар. – Тошкент, 2011. – Б. 13.

<sup>233</sup> Узоқов Х. Дialektal frazeologizmлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974. №6. – Б. 60.

<sup>234</sup> Йўлдошев Б. Ўзбек frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiёti (monografiya). – Samarqand, 2013. – Б. 72.

<sup>235</sup> Шомаксудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Тошкент, 2001; Шомаксудов Ш., Долимов С. Қайроқи сўзлар. – Тошкент, 2011; Исоқов Ф. Даққиюнус // “Фан ва турмуш” журнали, 1997. № 4. – Б. 13-14; Жафарова Д.И. Француз ва ўзбек тилларида тарихий хотирани ифодаловчи frazeologik birlikларнинг лисоний хусусиятлари. – Тошкент, 2022; Xamidov M.A. O‘zbek tili janubiy Surxondaryo o‘zbek shevalari barqaror birikmalarining lingvistik xususiyatlari. – Termiz, 2023.

<sup>236</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. Биринчи жилд. – Б. 7.

<sup>237</sup> Шомаксудов Ш., Долимов С. Қайроқи сўзлар. – Тошкент, 2011. – Б. 4-5.

sizib chiqishi uchun qatiq echki terisidan tikilgan xaltaga solib osib qo‘yiladi. Teridan tikilgan xalta shevada tulup nomi bilan ataladi. Tulup ichidagi qatiq tezroq suzma holiga kelishi uchun tez-tez kovlab turiladi. Bu esa ko‘proq mehnat va harakatni talab etadi. Mehnatdan qochgan, tulubini tez-tez kovlab turmaydigan, ishyoqmas, dangasa kishiga nisbatan aytilgan ushbu ibora aynan shu jarayon orqali yuzaga kelgan. (Eshqobilova Bo‘rixol, 75 yosh, Xo‘japillos qishlog‘i fuqorasi bergan ma‘lumot asosida keltirildi.) Yoki obisinimning kiyizi irisinda chirisin iborasining paydo bo‘lishi tarixiy voqelik bilan bog‘liq. Ovsin ovsinnikiga hasharga kiyiz (kigiz)bosishga boradi. Kigiz bosish; yungdan namat, palos kabi buyumlar tayyorlash.<sup>238</sup> G‘araz niyatda “ovsinimning kiyizi irisini, undan foydalanolmay chirisin”– deya olib-otib alla qiladi. Kiyiz tayyorlashda qo‘y yungini suv yaxshi o‘tadigan, yuqa, qattiq matoga o‘rab, yaxshilab bog‘lab, tekis yog‘och ustiga qo‘yib ustidan qaynoq suv quyiladi. Kamida olti kishi ikki tarafdin o‘tirib, kigizni tebratadi. Bu jarayon alla qilish deyiladi. Kiyiz tayyorlash juda murakkab jarayon bo‘lib, ko‘proq jismoniy kuch talab qiladi. Agar ishchi kuchi kam bo‘lsa, ehtiyotkorlik bilan tebratilmasa, yunglar bir-biriga birikmaydi. Bu esa kiyizning irishi deyiladi. Irigan kiyiz esa foydalanishga yaroqsiz bo‘ladi. Ammo ovsin tebratgan joy borib ketadi. “Borib ketmoq” iborasi yaxshi ishlov berilgan, maromiga yetkazib bajarilgan ish ma’nolarini ifodalovchi iboradir, uning ishlatilishi kiyiz bosish jarayonida ko‘p kuzatiladi. Ushbu ibora ovsinning ovsinga bo‘lgan salbiy munosabati ifodasini ko‘rsatib turadi. (Zubayda momo, 95 yosh, Oqirtma qishlog‘i fuqorasi bergan ma‘lumot asosida keltirildi.)

Iboralarda tarixiy voqealar bilan birga, kishilarga xos xususiyat, fe‘l-atvor, ularning o‘zaro munosabatlari ham aks etadi. Qiz kapadan iborasi sheva vakillari nutqidagi faol birliklardan sanaladi, chunki uning mazmuni oila bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar doirasidagi asosiy tushunchalarga daxldorlik kasb etadi. Ushbu iborada “odobli, tarbiyali qiz kambag‘al oiladan chiqadi” degan ma‘no o‘z ifodasini topgan. Ibora tarkibidagi “kapa” leksemasi izohli lug‘atda “vaqtincha yashash uchun daraxt shoxlari va yirik o‘t-o‘lanlar bilan o‘rab quriladigan xona, yozlik uy; chayla”<sup>239</sup> tarzida izohlangan. O‘tmishda shu hududlarda yashovchi imkoniyati keng qipchoqlar paxsadan uy qurib yashashgan. Tor imkoniyatlilari esa o‘t-o‘lanlarini o‘rab xona qurishgan. Ular odamlarning nazdida sabrli, boriga qanoatlanadigan kishilar sanalgan va ularning oilasidan kelin olish urfga aylangan. Bu hodisa orqali yuzaga kelgan ushbu ibora bugungi kunda biror xonadonga kelin tavsiya qilinayotganda qo‘llaniladi. (Yusuf Shodiyev, 76 yosh, Nishon tumani fuqorasi bergan ma‘lumot asosida keltirildi.)

Ma‘lumki, o‘tmishda ajdodlarimiz hayvonlar terisidan o‘rinli va unumli foydalanishgan. Asosan mol terisiga ishlov berib, kiyim-kechak, idishlar, ro‘zg‘or buyumlari tikishgan.

<sup>238</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 364 б.

<sup>239</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 315 б.

Qashqadaryo qipchoqlari tilida teri bilan bog‘liq bo‘lgan iboralar talaygina. Shulardan biri *oq terini ko‘k teri qilmoq* iborasidir. Ushbu iboraning shakllanishi ham muayyan voqelik bilan uzviy bog‘liq. *Kampir qo‘shni kampirdan qaytarish sharti bilan oq rangli teri olib ketadi. Ma‘lum vaqt o‘tgandan so‘ng, oq rangli teri o‘rniga undan shakl jihatidan kichikroq ko‘k teri olib keladi. Qarz ko‘ngildagidek qaytarilmagandan so‘ng, kampir “oq terimni ko‘k teri qildi”, – deydi.* Shu voqea asosida yuzaga kelgan ushbu ibora bugungi kunda qarzga olingan har qanday narsa o‘z bahosida qaytarilmagan holat va jarayonlarda faol qo‘llanadi, badiiy asar qahramonlarining nutqiga ham olib kirilgan. Ushbu ibora tarkibidagi rang bilan bog‘liq leksemalarda majoziy ma‘no ham mujassamlashgan. Xalqimiz tarixi va hayotida oq rang poklik, yaxshilik ramzi hisoblanadi. Ko‘k rang esa sheva vakillari hayotida salbiy ifodaga ega, xafagarchilikni ifodalaydi. Xususan, *ko‘karib ketmoq, ko‘k kiygan* kabilar. Bu majozda tushkin kayfiyat ham anglashiladi.

*Xayrli ishga tosh otmoq* iborasi “ezgu, savobli ishga ozgina bo‘lsa ham, chin dildan hissa qo‘shmoq” ma‘nosini anglatadi. Odatda, “tosh otmoq” birikmasi salbiy ma‘no ottenkasiga ega. Ammo ushbu ibora tarkibida bu birikma ijobiy ma‘no ifodasi uchun xizmat qilmoqda, ya‘ni juda oz bo‘lsa-da, hissa qo‘shishga undash, da‘vat mazmuni anglashiladi. Ibora dastlab qurilish ishiga imkoniyat darajasida ko‘maklashmoq (*devorga tosh qalamoq, toshni olib berib turmoq*) ma‘nolari ifodalanishi asosida yuzaga kelgan. Dastlab qurilish ishi asosida paydo bo‘lgan ushbu ibora bugun barcha ezgu ishlarga hissa qo‘shishga nisbatan qo‘llanadi. Sheva vakillari nutqida ishlatiladigan iboralar kontentida urf-odatlar, milliy an‘analar, oilaviy munosabatlar hamda irim-sirimlarga xos bo‘lgan va boshqa shu kabi munosabatlarni ifoda etuvchi iboralar ham talaygina. Jumladan, *qovurg‘asiga to‘g‘ri kelmaydi* iborasi “ayol qovurg‘adan yaralgan” degan qarash asosida paydo bo‘lgan. Ibora ayol va uni so‘rab kelgan erkak yoshi orasidagi farqdan kelib chiqib, sovchilarga rad javobini bergan ota-ona tomonidan aytilgan. Ya‘ni ular yosh jihatidan bir-biriga mos emas ma‘nosi ifodalanadi. Bir tomon ikkinchi tomonni nazariga ilmaslik vaziyatiga mos tarzda *suyagimizga mos emas* iborasi qo‘llaniladi. Bir qarashda bu ikki ibora variantdosh iboralardek ko‘rinsa-da, ikki xil ma‘noda qo‘llanuvchi alohida ma‘noga ega iboradir. *Suyagimiz toza, oq suyak* kabi barqaror birikmalar ham shular jumlasidandir.

Qashqadaryo qipchoq shevasida gaplashuvchi aholi hayoti, turmush tarzi bevosita dehqonchilik, chorvachilik, to‘quvchilik sohalari bilan chambarchas tarzda taraqqiy topib kelmoqda. Ularning asosiy mashg‘ulotlaridan biri chorvachilik ekanligi, turmush tarzi bevosita chorva mollari parvarishi va shu soha bilan bog‘liqligi ularning tilida ham o‘z ifodasini topgan. *Bozor ko‘rgan yechki, otning jemini jeb, toyning qilig‘ini qilmoq, qari yechkidan qo‘rq, qo‘yding terisini jobinib, bo‘ri ko‘rmoq, bo‘ri bo‘lmoq, ola qopda un qoldi, ola qo‘zida jir qoldi, molingni tish borida je, sinidan ho‘kiz qo‘rqadi, tilab olgan yerimni yechki tevib vo‘ltirdi* singari iboralar aholining bevosita chorvachilik faoliyati asosida yuzaga kelgan deyish mumkin, ayni holat sheva vakillari hayotida chorva mollariga iqtisodiy imkoniyat asosi deb qaralishidan darak beradi. Sheva vakillari tilidagi ushbu soha bilan bog‘liq bo‘lgan har bir ibora o‘z yaratilish tarixiga ega. Chorvachilik bilan bog‘liq hayot tarzi asosida yuzaga kelgan *suruviga bo‘ri*

oralagan iborasining mazmunida ham bunga guvoh bo‘lamiz. *Bir kambag‘al kishiga tog‘asi tomonidan ko‘paytirib undan foydalanish maqsadida bir dona qo‘zi hadya qilinadi. Bu qo‘zi yakka bo‘lganligi uchun qo‘shnisining qo‘ylari suruviga qo‘shib qo‘yiladi. Suruvga bo‘ri hujum qilib, ayni shu qo‘zini bo‘g‘izlab ketadi. (Bo‘g‘izlamoq – bo‘g‘izdan tishlab g‘ajib o‘ldirmoq)*<sup>240</sup> Bu voqeadan so‘ng kambag‘al kishining ishi tasodifan yurishib, boyib ketadi. Ushbu voqea asosida yuzaga kelgan ibora ishi yurishgan, omadi kelgan kishilar holatiga nisbatan qo‘llaniladi. Yoki “jetim qo‘ziga po‘stak jopganday” chorvadorlar yetim qo‘zilarini sovuqdan, yomg‘irdan asrash uchun ularni po‘stakka o‘rab qo‘yishgan. (Po‘stak – o‘siq junli oshlangan teridan iborat to‘shak.)<sup>241</sup> Po‘stak yopingan qo‘zilar beo‘xshov hayvonga o‘xshab qolgani uchun boshqa chorva mollari bulardan hurkib o‘zini olib qochishgan. Majozda kiyimi beo‘xshov, yarashmagan kishilarga nisbatan aytiluvchi ushbu lug‘aviy birlik ushbu jarayon asosida paydo bo‘lgan. (Xoldon Azimova, 70 yosh, Oqrabot qishlog‘i fuqorasi bergan ma‘lumot asosida keltirildi.)

**XULOSA.** Yuqoridagilardan anglashiladiki, Qashqadaryo qipchoq shevalari leksikasida, adabiy til leksikasidan barqaror o‘rin topmagan, milliy til unsurlarini o‘zida saqlagan dialektal frazeologizmlar miqdori ancha. Ularning boshqa xususiyatlari qatori shakllanish asoslari (etimologiyasi)ni o‘rganish ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki iboralarining yuzaga kelishida til egalarining qarashlari, yashash muhiti, kasb-kori, mashg‘uloti, umuman, madaniyati, salohiyati kabilar muhim o‘rin egallaydi. Ular orqali esa ajdodlarimizning ruhiyati, millatimiz dunyoqarashini yanada teranroq anglab olish imkoniyati yuzaga chiqadi.

Xalqning ijodiy boyligi sanalgan frazeologizmlar olam va odam munosabatlarini, voqelikni to‘g‘ri va haqqoniy, shuningdek, obrazli, ta’sirchan aks ettirishi tufayli ham uzoq vaqtlardan buyon tarkibida tarixiy so‘z shakllarini saqlagan holda yashab kelmoqda. Frazeologizmlarni to‘plash, o‘rganish, ularni ilmiy tahlil qilish, nafaqat adabiy tilimizni boyitish, balki tilimiz tarixini, ona tilimizning lisoniy, badiiy imkoniyatlari, madaniy belgi-xususiyatlarini ochib berish, ulardan muloqot jarayonida, nutq faoliyatida samarali foydalanish imkoniyatlarini ham ta’minlashga ham xizmat qilishi shubhasiz.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик бирликларнинг асосий грамматик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – М., 1952;
2. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2000;
3. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари (ўқув қўлланма). – Самарқанд, 1998;
4. Йўлдошев Б., Бозорбоев К. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент, 1998;

<sup>240</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Биринчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б. 426.

<sup>241</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Учинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б. 330.

5. Усмонова Ш. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998;
6. Абдусайдов А. Фразеологизмлар – матбуот тилида таъсирчан восита. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2001;
7. Абдуллаев Ш. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси (Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006;
8. Алмаматова Ш.Т. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008;
9. Туропова М. Ўзбек шевалари фразеологияси // Абдурахмонов Д., Содиқов Т., Носиров Ш., Туропова М. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 181-228;
10. Вафоева М.Й. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009.
11. Ат-тухфатуз закияти фил-луғатит туркия. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 204.
12. Содиқов Т. Тошкент область ўзбек шевалари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1968. – Б. 106.
13. Кошғарий М. Девону луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони). / Ғ.Абдурахмонов ва С.Муталлибов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 43.
14. Шомақсудов Ш., Долимов С. Қайроқи сўзлар. – Тошкент, 2011. – Б.
15. Дониёров Х. Ўзбек тили “ж” лашган (қипчоқ) диалектининг фразеологияси устидан кузатишлар // Фразеология масалалари, СамДУ асарлари, янги серия, 106-чиқиши. – Самарқанд, 1961. – Б. 80-85.
16. Шомақсудов Ш., Долимов С. Қайроқи сўзлар. – Тошкент, 2011.
17. Узоқов Ҳ. Диалектал фразеологизмлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974. №6. – Б. 60.
18. Xamidov M.A. O‘zbek tili janubiy Surxondaryo o‘zbek shevalari barqaror birikmalarining lingvistik xususiyatlari. – Termiz, 2023.
19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Биринчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б. 426.
20. Musayeva F. O‘zbek xalq so‘zlari. – Toshkent, 2023. – B. 22.